



**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY MOSLASHUV  
JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Andijon viloyati Baliqchi tumani*

*11-maktab amaliyotchi psixolog*

*Rahmanova Venera Avazbekovna*

*Andijon viloyati Baliqchi tumani*

*34-umumiy o'rta ta'lim maktabi Amaliyotchi-psixolog*

*Jo'rayeva Dilnoza Rustamjonovna*

**Annotatsiya**

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy muhitga moslashuvi, ayniqsa maktabdagi ilk bosqichlarda yuzaga keladigan psixologik holatlari, ularning sabablari va bu jarayonni osonlashtirish usullari tahlil qilinadi. Maktab ostonasini endigina bosib o‘tgan bolalar uchun yangi muhit, yangi talablar va yangi ijtimoiy rollar ularga psixologik bosimni keltirib chiqarishi mumkin. Ijtimoiy moslashuv — bu bolaning yangi jamoa qoidalari va normalariga psixologik va emotsiyal jihatdan moslasha olishi bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Ushbu maqolada aynan shu jarayonning kechish xususiyatlari, psixologik omillar, o‘qituvchi va ota-onalarning roli, shuningdek, ijtimoiy moslashuvni yengillashtiruvchi pedagogik usullar tahlil qilinadi. Tajriba va kuzatuvlarga asoslangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu jarayon qanday bosqichlardan iboratligi va ularning ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasini oshirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Mazkur maqola psixologlar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda ota-onalar uchun foydali bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bolaning ijtimoiy moslashuv darajasi ularning keyingi o‘qish motivatsiyasi va psixologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan, bu jarayonni ilmiy asosda o‘rganish va mos ravishda yondashuv ishlab chiqish muhim hisoblanadi.



**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy moslashuv, psixologik xususiyat, boshlang‘ich sinf, bola psixologiyasi, muhitga moslashish, o‘qituvchi roli, sinfdoshlar bilan munosabat, emotsional moslashuv, psixologik qo‘llab-quvvatlash.

## PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE SOCIAL ADAPTATION PROCESS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

### Abstract

The article analyzes the adaptation of primary school students to the social environment, especially the psychological states that occur in the early stages of school, their causes and methods of facilitating this process. For children who have just crossed the threshold of school, a new environment, new requirements and new social roles can cause psychological pressure on them. Social adaptation is a complex process associated with a child's ability to psychologically and emotionally adapt to the rules and norms of a new community. This article analyzes the characteristics of this process, psychological factors, the role of teachers and parents, as well as pedagogical methods that facilitate social adaptation. Based on experience and observations, it is shown what stages this process consists of in primary school students and ways to increase their level of socio-psychological adaptation. This article can be useful for psychologists, primary school teachers and parents. Research shows that the level of a child's social adaptation directly affects their further motivation for study and psychological state. Therefore, it is important to study this process on a scientific basis and develop an appropriate approach.

**Keywords:** social adaptation, psychological characteristics, primary school, child psychology, adaptation to the environment, teacher's role, relationships with classmates, emotional adaptation, psychological support.



## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ

### Аннотация

В статье анализируется адаптация учащихся начальной школы к социальной среде, особенности психологических состояний, возникающих на ранних этапах обучения в школе, их причины и методы облегчения этого процесса. Для детей, только что переступивших порог школы, новая среда, новые требования и новые социальные роли могут оказывать на них психологическое давление. Социальная адаптация — сложный процесс, связанный со способностью ребенка психологически и эмоционально адаптироваться к правилам и нормам нового сообщества. В статье анализируются особенности этого процесса, психологические факторы, роль учителей и родителей, а также педагогические методы, способствующие социальной адаптации. На основе опыта и наблюдений показано, из каких этапов состоит этот процесс у учащихся начальной школы и пути повышения уровня их социально-психологической адаптации. Статья может быть полезна психологам, учителям начальной школы и родителям. Исследования показывают, что уровень социальной адаптации ребенка напрямую влияет на его дальнейшую мотивацию к учебе и психологическое состояние. Поэтому важно изучать этот процесс на научной основе и разрабатывать соответствующий подход.

**Ключевые слова:** социальная адаптация, психологические особенности, начальная школа, детская психология, адаптация к среде, роль учителя, взаимоотношения с одноклассниками, эмоциональная адаптация, психологическая поддержка

### Kirish

Bola hayotining eng muhim bosqichlaridan biri bu — maktabga ilk bor qatnashni boshlash davridir. Ushbu bosqichda u ijtimoiy tizimda yangi maqom –



o‘quvchi sifatida ishtirok etadi va bu maqomga mos ravishda yangi qoidalarga, odatlarga, talab va munosabatlarga duch keladi. Ijtimoiy moslashuv — bolaning yangi muhitga, jamoadagi munosabatlar tizimiga, maktab tartib-qoidalariga o‘zini moslashtira olishi, emotSIONAL va psixologik barqarorlikni saqlab qola olishidir. Bu jarayon ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun nihoyatda dolzarbdir. Chunki aynan shu davrda bola ilk bor jamoaga, ya’ni sinfga kiradi va bu jamoa unga begona, notanish hisoblanadi.

Moslashuvning muvaffaqiyatli kechishi bola shaxsining rivojlanishida, o‘ziga bo‘lgan ishonchning shakllanishida va ta’lim olishga bo‘lgan munosabatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, psixologlar va pedagoglar tomonidan ijtimoiy moslashuv jarayonini chuqr o‘rganish, bolalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashuvlar ishlab chiqish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi qaror va farmonlarida ham ta’lim sifatini oshirishda bolaning ruhiy-psixologik holati va shaxsiy taraqqiyoti asosiy e’tiborda turadi. Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvi jarayonidagi psixologik muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari, o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi roli, tengdoshlar bilan bo‘lgan munosabatlar, shuningdek, ota-onalarning bu jarayondagi ishtiroki masalalarini ilmiy jihatdan yoritishga qaratilgan.

### **Adabiyotlar tahlil**

Ijtimoiy moslashuv masalasi pedagogika va psixologiya sohasida doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Bu borada ko‘plab o‘zbek va xorijiy olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarini olib borganlar. Masalan, Q. Yo‘ldoshev o‘zining “Psixologiya asoslari” nomli asarida bolaning jamoadagi psixologik moslashuvi haqida fikr yuritadi. Unga ko‘ra, bolaning ijtimoiy muhitga qanday moslashgani uning kelgusi o‘quv faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. L. Karimova esa “Yosh davrlari psixologiyasi” asarida aynan 6-7 yoshdagi bolalarning shaxsiy xususiyatlariga e’tibor qaratib, ularning moslashuv jarayoni emotSIONAL barqarorlik bilan bog‘liq ekanligini



ta'kidlaydi. Xalqaro olimlardan E. Eriksonning shaxsiy rivojlanish nazariyasi, J. Piagening kognitiv rivojlanish bosqichlari ijtimoiy moslashuvning psixologik asoslarini chuqurroq tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ularning fikricha, bola sinfda o‘zini qulay his qilishi, o‘z fikrini erkin ifoda etishi uchun uni avvalo ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash zarur.

Sattorov O.A. tomonidan yozilgan “Ta’lim psixologiyasi” asarida maktab muhitida yuzaga keladigan psixologik to‘sqliar va ularni yengish usullari yoritilgan. Rasulova D.A. esa maktabdagi emotsional-ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tajribalari orqali bolalarning ijtimoiy moslashuvi qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘qituvchining shaxsiyati, pedagogik yondashuvar, darsdagi psixologik muhit, ota-onalar bilan muloqot sifati kabi omillar bu jarayonga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir bolaning shaxsiy tajribasi, temperament tipi va oilaviy tarbiyasi moslashuv tezligi va sifatini belgilovchi muhim omillardir.

### Tadqiqotlar qismi

Tadqiqotlar Toshkent viloyati Baliqchi tumanidagi 3 ta umumiyligi o‘rtaligida 1-sinf o‘quvchilari misolida olib borildi. 75 nafar o‘quvchi (39 qiz va 36 o‘g‘il bola) ishtirok etdi. O‘quvchilarining ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash uchun psixologik test va o‘qituvchi bilan intervyu usullaridan foydalananildi.

Psixologik testda o‘quvchilarga “men sinfimni yaxshi ko‘raman”, “men o‘qituvchimni tushunaman”, “menga darslar yoqadi” kabi savollar berildi. Javoblar asosida 3 ta daraja: yuqori, o‘rtacha va past ijtimoiy moslashuv holatlari aniqlandi. Natijalar quyidagicha bo‘ldi: 28% o‘quvchilar yuqori darajadagi moslashuvga ega, 51% o‘rtacha darajada va 21% o‘quvchilarda moslashuv darjasini past bo‘lib chiqdi. Past darajali o‘quvchilarda asosiy muammo sifatida notanish muhitdan qo‘rqish, tengdoshlar bilan munosabatda qiynalish va o‘z fikrini erkin ayta olmaslik holatlari kuzatildi. O‘qituvchilar bilan suhbatda esa, bunday bolalarni emotsional



rag‘batlantirish, rolli o‘yinlar orqali jamoaga moslashtirish samarali ekanligi ta’kidlandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy moslashuvni yengillashtirish uchun darsdan tashqari faoliyatlar, ijobiy emotsiyal muhit va psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi

### Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ijtimoiy moslashuv — nafaqat psixologik, balki pedagogik jihatdan ham muhim jarayondir. Mazkur tadqiqot asosida aniqlanishicha, har bir bolaning jamoadagi moslashuvi individual bo‘lib, unga oilaviy tarbiya, o‘qituvchining yondashuvi, tengdoshlar bilan munosabat va o‘quv jarayonining qiziqarli tashkil etilishi bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy moslashuv past darajada bo‘lgan o‘quvchilar bilan individual ishslash, ularni o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan, o‘ziga ishonch hosil qiladigan shaxs sifatida shakllantirish muhimdir. O‘qituvchining sabr-toqatli, mehribon, psixologik tayyorligi bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi. Shuningdek, ota-onalarning hamkorligi, bolani rag‘batlantirish, mактабдаги psixologik xizmat bilan yaqin hamkorlikda ishslash ijobiy natijalarga olib keladi.

### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Hasanboyeva, S. (2019). *Bola psixologiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
2. Karimova, Z. (2021). *Pedagogik psixologiya asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Rasulova, M. (2018). *Boshlang‘ich ta’lim psixologiyasi*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
4. Jo‘rayev, B. (2020). *Ijtimoiy psixologiya*. Toshkent: Yangi asr avlod.
5. Toshpulatova, D. (2022). *Maktabgacha va kichik mактаб yoshidagi bolalarda moslashuv jarayonlari*. Toshkent: Ilm ziyo.
6. Xodjayev, A. (2017). *Ta’lim psixologiyasi va shaxs taraqqiyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot.



7. Mahmudova, N. (2020). “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida moslashuvdagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari”, *Psixologiya va hayot jurnali*, №2, 45-49-betlar.
8. Qodirova, F. (2021). “O‘quvchilar shaxsiy rivojlanishida ijtimoiy omillarning o‘rni”, *Ilmiy tadqiqotlar va ta’lim texnologiyalari*, №4, 37-41-betlar.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni – 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
10. UNESCO (2020). *Social and Emotional Learning in Primary Education: A Global Perspective*. Paris: UNESCO Publishing.